
LOYIHA QIYMATI 720 MILLION SO'M BO'LGAN MINI-STADION FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



Loyiha qiymati 720 million so'm bo'lgan mini-stadion foydalanishga topshirildi

Respublikamizda inson manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarda fuqarolarning qadru qiymati, ularning sha'ni va hurmati mujassam. Bugun fuqarolarimiz jamiyatdagi barcha o'zgarish va yangilanishlarda bevosita ishtirookchi sifatida o'zini va o'zligini namoyon etishayotir.

Sarikanda mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida qurilgan yangi mini-stadion bugun foydalanishga topshirildi. Mazkur mini-stadionga oid loyiha "Tashabbusli byudjet"ning birinchi bosqichida g'olib deb topilgan.

Foydalanishga topshirish marosimida qatnashgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev barcha mahalla ahlini ushbu betakror kun bilan tabrikladi. So'ng quruvchi tashkilot vakillari, mahalla faollariga tuman hokimi va tuman sektorlari rahbarlari tomonidan tashakkurnomalar va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

Tadbir so'ngida yosh sportchilar va voleybolchilar ishtirokida futbol musobaqasi o'tkazildi. Tuman sektorlari rahbarlari va tuman hokimi o'rinbosarlari ishtirokida maktabning hududida "yashil makon" umumimilliy loyihasi doirasida nihollar o'tqazildi.











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-26 16:41:27